

## BYUDJET TASHKILOTLARINING XARAJATLAR SMETASI IJROSI TO'G'RISIDAGI HISOBOT VA UNI TUZISH TARTIBI

A. *Suvonqulov*  
D. M. *Meliqo'ziyeva*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirishning ahamiyati, xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tuzish tartibi tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** byudjet tashiloti, xarajatlari smetasi, xarajatlar guruhlari, xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot, tasdiqlangan reja.

**Abstract:** This article examines the importance and specific features of planning the expenses of budget organizations based on estimates, report on the execution of cost estimates and the procedure for its composition has been researched.

**Keywords:** budget transport, temporary estimate, permanent estimate, staff table, cost estimate, cost groups, report on the implementation of the cost estimate, approved plan.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hozirgi kunda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning negizi hisoblanib, ushbu o'zgarishlar barcha sohalarni qamrab olgan holda o'z samarasini bermoqda. Jumladan, Davlat sektorida ham islohotlarning amalga oshirilayotganligi bu sohada tashkiliy-uslubiy jihatdan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, xorij tajribasini chuqur o'rgangan holda milliy iqtisodiyotimizga xalqaro standartlar talablarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda uni erkinlashtirish va bozor munosabatlarini rivojlantirish talablariga javob bera oladigan byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmini yaratish muhim o'rin tutadi. Chunki jamiyatimiz ijtimoiy- iqtisodiy hayotida yuz bergan va berayotgan tub o'zgarishlar, ularni mablag' bilan ta'minlash, nazorat va tahlil qilish hamda olib borilayotgan islohotlarni to'g'ri tashkil etishda asosan xarajatlar smetasiga murojaat qilinadi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, xarajatlarni to'g'ri yo'naltirish tizimi va mazkur hisobotlarni tayyorlash tartibini bozor munosabatlari talablari asosida qayta ko'rib chiqish, rivojlantirish va takomillashtirib borish davlatimiz byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir. Davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadigan qator ijtimoiy sohalari: ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, davlat boshqaruvi organlari muassasa va tashkilotlari budjet tashkiloti maqomida faoliyat qiladi. Davlat byudjetining katta miqdori ham aynan shu sohalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Mamlakatimizda davlat budjeti xarajatlarning asosiy qismi budjet tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan ekan, bu mablag' lardan to'g'ri va maqsadli tarzda foydalanish zarur.

Davlat o'z funksiya va vazifalarini bajarishi uchun budjet daromadlarini shakllantiriladi va xarajatlarini amalga oshiriladi. Xususan, 2022-yilda mamlakatimiz budjet daromadi 202 trln so'mni, budjet xarajatlari esa, 236,5 trln so'mni tashkil qilgan. Bunda ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan 117,7 trln so'm yoki umumiy xarajatlarning 50 foizi miqdorida mablag' sarflandi. Bu mablag'lar harakati bilan bog'liq faoliyatlar to'g'ri, aniq va tezkor amalga oshirilishi amaldagi hisob tizimiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi statistik ma'umotlardan shunisi ma'lumki, davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar sarfi asosan budjet tashkilotlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Bu mablag'larning maqsadli va oqilona sarflanishi to'g'risidagi axborotlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Budjet tashkilotlarini har birini moliyalashtirish davlat budjetidan tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Budjet tashkilotlari faoliyatlarini moliyalashtirishda budjet mablag'laridan tashqari, qonunchilikka muvofiq, budjetdan tashqari mablag'larini ham shakllantirishlari mumkin. Bu esa budjet tashkilotlarining mustaqil ravishda daromadlarini shakllantirishlariga imkon yaratadi.

Xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirish uchun qabul qilish tartiblari Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, Moliya vazirligining buyruqlari va tegishli tarmoq vazirliklarining me'yoriy hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan. Ammo shuni ta'kidlab o'tish joizki, oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, o'rta muddatli budjet istiqbollari belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat budjetining g'azna ijrosi mexanizmlarining joriy etilishi, budjet mablag'lari hisobidan davlat xaridlarini tashkil etish tartiblarining belgilanishi va budjet siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlari xarajatlarini aniq rejalashtirish va ularni nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Respublikamizda xarajatlar smetasidan samarali foydalanish borasidagi asosiy kamchiliklar xarajatlar smetasini tuzishning va g'aznachilik tizimining shaffof emasligi, byudjet tizimining kengligida namoyon bo'lmoqda. Ayrim hollarda xarajatlar smetasini shakllantirish tamoyillarining buzilishi, xarajatlarning rag'batlantirish vazifasini to'laqonli bajarmayotganligi holatlari kuzatilmoqda. Natijada byudjet tashkilotlarining moliyaviy holati salbiy tarafdagi o'zgarishi ham yuz bermoqda.

Byudjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub'ektlarga byudjetdan mablag'larni taqdim etish tizimi tushuniladi. U pul mablag'larini taqdim etishning o'ziga xos bo'lgan shakl va metodlari bilan xarakterlanadi hamda ma'lum bir printsiplarga tayanadi.


Xarajatlar smetasi byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat hisoblanadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi.T.: "Norma",MJCh.2014 y- 96 b. 3-moddasi

Demak, smeta deganda oldindan tuzilgan kirim-chiqim hisobini ya'ni notijorat faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotning maqsadga yo'naltirilganligi nuqtai nazaridan pul mablag'larining tashkil topishi va sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotni o'zida mujassamlashtiruvchi moliyaviy rejasi tushuniladi. Ish haqini to'lashga va joriy faoliyatga tegishli xarajatlar byudjetdan ajratilganligini, shuningdek mablag'larning maqsadli yo'naltirilganligi va choraklar bo'yicha taqsimoti hajmini belgilovchi hujjatdir.

Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra tuziladi. Mazkur nizomda budjet tashkilotlari tomonidan budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarini, budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim qilish tartibi keltirilgan. Shuningdek budjet tashkilotlari tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetalarini tuzish va taqdim qilish tartibi, shtatlar jadvalini tuzish va taqdim qilish tartibi ham keltirilgan. Bundan tashqari mazkur smetalarni va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish va ularni to'g'ri tuzilganligini nazorat qilish tartibi bayon qilingan.

Shuningdek, ushbu Nizomda budjet tashkilotlarida smetalarning quyidagi turlari amalda qo'llanilishi keltirib o'tilgan (1-rasm):



1-rasm. Budjet tashkilotlari xarajatlar smetalarining guruhlanishi<sup>2</sup>

Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobotni tuzishdan oldin tashkilotlar:

- tasdiqlangan xarajatlar smetalariga belgilangan tartibda kiritilgan o'zgartirishlarning hisob registrlariga (294-shakl daftarlariga) to'g'ri yozilganligini;

2 "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11

"Byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari" 1161-bet

hisobot davri uchun budjetdan moliyalashtirilgan mablag'larni tasdiqlangan xarajatlar smetalariga muvofiq holda (kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda) amalga oshirilganligini (tegishli memorial orderlar, 294-shakl daftari va boshqa hisob registrarlari asosida);


- hisobot choragida amalga oshirilgan kassa xarajatlarning (G'aznachilik bo'linmalari orqali amalga oshirilgan to'lovlarning) to'g'riligini (tegishli memorial orderlar, 294-shakl daftarlari va boshqa hisob registrarlari asosida);

- haqiqiy xarajatlarning hisob registrarlari to'g'ri yozilganligini (tegishli memorial orderlar va 294-shakl daftarlari ma'lumotlari asosida) tekshirib chiqishlari lozim.

"Tasdiqlangan (aniqlangan) reja" ustuniga tashkilotlarning tegishli tasdiqlangan xarajatlar smetalari bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlar hisobi bilan hisobot davriga aniqlangan rejani xarajatlar tasnifining hisobot shaklida keltirilgan xarajat moddalari bo'yicha yoziladi.

Smetalar O'zbekiston respublikasi davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning amaldagi tasnifnomasiga muvofiq xarajatlarning to'liq yoyilmasi ilova qilingan holda xarajatlarning to'rt guruhi bo'yicha tuziladi va hisobot berish maqsadida foydalaniladi.

2-rasm. Budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar smetalaridagi xarajatlarning tarkibi <sup>3</sup>



Xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risida hisobotni tuzishda quyidagi shartlar to'liq saqlanishi lozim:

- hisobot davridagi barcha operatsiyalar hamda pul mablag'lari, asosiy vositalar, moddiy qimmatliklarning inventarizatsiya qilinishi va hisob-kitoblar natijalarining to'liq aks ettirilishi;

- analitik hisob ma'lumotlarining hisobot davrining birinchi sanasiga sintetik hisob yuritish hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va qoldiqlarga bir xil bo'lishi,

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014 yil 14 noyabrdagi 74-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Byudjettashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM asosida tayyorlandi.

- shuningdek moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarining sintetik va analitik hisob ma'lumotlariga mosligi;

- xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risida hisobotlardagi tegishli yozuvlarni qayd etish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan birlamchi hujjatlardan foydalanish.

Ushbu asosiy shartlarga rioya qilinmagan holda tuzilgan xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risida hisobot noto'g'ri tuzilgan deb hisoblanadi.

Xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risida hisobot, qoida tariqasida, o'sib boruvchi tartibda bitta o'n xonali sonda ming so'm hisobida tuziladi.

Agarda, me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini buzmaganda xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risida hisobotlar ko'rsatkichlari manfiy qoldiq bilan chiqsa (manfiy qoldiqqa ega bo'lsa), u holda hisobotlarda ushbu ko'rsatkichlar «minus» belgi bilan aks ettiriladi.

Xarajatlar smetalarini, daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzishda mehnatga haq to'lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun narx va tariflar barcha tashkilotlar (mavsumiy yoki moliya yili mobaynida yangidan tuzilayotgan tashkilotlardan tashqari) bo'yicha - mazkur smetalar tuzilayotgan moliya yilining 1 yanvarida amalda bo'lgan shartlarda; mavsumiy yoki moliya yili mobaynida yangidan tuzilayotgan tashkilotlar bo'yicha - mazkur tashkilot faoliyat ko'rsatishi boshlangan oyning birinchi sanasi holatiga ko'ra hisobga olinadi.

Byudjet tizimi byudjetlari ijrosi jarayonida yuzaga keladigan barcha qo'shimcha xarajatlarga byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalariga byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida va mazkur Nizomda belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Byudjet tashkilotlari tomonidan xarajatlar smetalari doirasida amalga oshirilgan lekin to'lab berilmagan xarajatlar haqiqiy xarajat ko'rinishida hisobda aks ettiriladi. Masalan smeta doirasida ish haqi hisoblangan lekin to'lab berilmagan yoki ish, xizmatlar ko'rsatilgan, tovarlar olingan lekin to'lab berilmagan xarajatlar haqiqiy xarajat ko'rinishida tegishli daftarlarda, hisobotlarda aks ettiriladi. Kassa va haqiqiy xarajatlar hisobini yuritish uchun alohida 294 - shakldagi daftar yuritiladi shuningdek hisobot shakllarida ham aks ettiriladi.

Shuningdek, g'azna ijrosiga o'tilgan tashkilotlarning tegishli moliyaviy hisobotlari, jumladan, xarajatlar smetasi ijrosi haqidagi hisobot, xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl) hamda byudjetdan tashqari mablag'larning harakati to'g'risida hisobotlar G'aznachilik bo'linmalari tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Asosiy xarajatlar smetasi bo'yicha moliyalashtiriluvchi tegishli moliya organiga esa, mazkur hisobotlarning nusxalari ma'lumot uchun taqdim qilinadi.

Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl) tashkilotlar tomonidan xarajatlar tasnifining har bir bo'lim, kichik bo'lim va bobi bo'yicha alohida holda tuziladi.

Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl) tashkilotlar tomonidan har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar topshiriladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi

tashkilotlarga byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari va moliya organining mazkur masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradi.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning rahbarlari hamda tegishli xodimlarining kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar, ularga tashkilotlarning xarajatlar smetasini tuzish tartibi masalalari bo'yicha qonun hujjatlari talablarini tushuntiradilar, byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi hisob-kitoblarini qonun hujjatlariga muvofiq kelishi majburiyligi, xarajat qilishda smeta-shtat intizomiga va tejamkorlik rejimiga rioya qilish haqida ko'rsatmalar beradilar, shuningdek xarajatlar smetasini tuzish hamda blankalarni to'ldirish texnikasi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar. Shuningdek, moliya yili davomida byudjet mablag'larini, byudjetdan tashqari mablag'larni smetada ko'zda tutilgan muayyan maqsadlarga to'g'ri va tejamli sarflanishi, shuningdek pul mablag'lari va moddiy boyliklarni butligi ustidan muntazam nazoratni o'rnatadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. "Budjet kodeksi" O'zbekiston Respublikasining 26-dekabr 2013-yilda O'RQ-360-sonli qonuni bilan tasdiqlangan. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) November 2022 / Volume 3 Issue 11 "Byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari" 1161-bet
3. Suvonqulov A.A, Ibragimov K.Sh. "Byudjet hisoboti" fanidan o'quv-uslubiy majmua.—T.: TMI, 2019. 155 bet.
4. Tuychiyev A.J. va boshq. Budjet tashkilotlarida budjet xisobi. Darslik. «Iqtisod-moliya» 2019. 429 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom
6. Mehmonov S.U., Kuliboyev A.Sh. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobi. O'quv qo'llanma, «Iqtisod-moliya» 2018. 186 b.
7. Hamdamov B.K. va boshq. Budjet nazorati. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod moliya"., 2016. 324 b.
8. Suvonqulov A., Tuychiyev A. J. "Budjet hisobining xalqaro standartlari" fanidan o'quv-uslubiy majmua 2019. 248 bet
9. Ostonokulov A.A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. Monografiya. ISBN 978-9943-7453-2-2 T.: "VNESHEWESTPROM" nashriyoti, 2021,208 b.
10. Ostonokulov A. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 296. – C. 06029.